

**Viloyat, tuman va shahar hokimliklarining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari
bo'yicha kotibiyatlardagi vakant lavozim bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov ishtirokchilari uchun**

SAVOLLAR

1. Hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibiga nimalar kiradi?
2. Konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibiga izoh bering?
3. Fiskal strategiya nima?
4. Tuman (shahar) mahalliy byudjetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish to'g'risida batafsil gapirib bering.
5. Moliya yili deganda qaysi davr tushiniladi?
6. Tashabbusli byudjet (Open Budget) to'g'risida ma'lumot bering.
7. Byudjet taqchilligi bilan byudjet profisiti nima?
8. Subsidiya, subvensiya, dotatsiya tushunchalariga ta'rif bering hamda ular o'rtasidagi farqni tushuntiring.
9. Dasturiy byudjetlashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Davlat transfertlari deganda nimani tushunasiz? Misol keltiring.
11. Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzi nima?
12. Hududda ishlab chiqarish kuchlarini maqbul joylashtirish deganda nimani tushunasiz?
13. Aholining real daromadlarini barqaror oshirish nimani o'z ichiga oladi?
14. Iqtisodiy rivojlanish dasturlari to'g'risida ma'lumot bering.
15. Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtiroki to'g'risida ma'lumot bering.
16. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
17. Mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
18. Mahalliy soliqlar va yig'implarning tarkibiga nimalar kiradi?
19. Real sektor korxonalari deganda nimani tushunasiz? Misol keltiring.
20. Hududdagi bozor va savdo komplekslarida qonunchilikka rioya etilishi qanday tartibda olib boriladi?
21. Mahalliy mahsulotlar eksportini diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
22. Mahalliy dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlash qanday tartibda olib boriladi?
23. Qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot nima va uning ulushini hududda oshirish yo'llari qanday?
24. Moliya va iqtisodiyot tushunchalariga ta'rif bering, ular o'rtasidagi farqli jihat nimalardan iborat?
25. «20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis» dasturi to'g'risida gapirib bering.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-son farmon mazmun-mohiyatini gapirib bering.
27. Kambag'allikni qisqartirishda Ijtimoiy himoya agentligining o'рни haqida gapirib bering.

28. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" yo'nalishi bo'yicha qanday maqsadlar qo'yilgan?
29. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
30. Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni oshirish deganda nimani tushunasiz? Misol keltiring.
31. Hududda kambag'allikni qisqartirish omillari nimalardan iborat?
32. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida gapirib bering.
33. Hududlarda «mahallabay» ishlash tizimini to'g'risida tushuncha bering.
34. Hududda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari nimalardan iborat?
35. Hududda «xufyona iqtisodiyot»ni kamaytirish choralariga nimalar kiradi?
36. Hududda bo'sh turgan va qurilishi tugallanmagan ob'yektlardan samarali foydalanish tartibini tushuntiring.
37. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni, narx konyunkturasini o'rganish va tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
38. Mahallalarning «o'sish nuqtalari»ni (ixtisoslashuv yo'nalishlarini) aniqlash tartibini tushuntiring.
39. Yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari, startap loyihalari va g'oyalarini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot bering.
40. Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun to'siq bo'layotgan muammolar nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
41. Hududlarning belgilangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga erishishini ta'minlash qanday tartibda erishiladi?
42. Investisiya dasturi nima va nimalarni o'z ichiga oladi?
43. Mahalliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining ahamiyati to'g'risida gapirib bering.
44. Mas'uliyati cheklangan jamiyat, xususiy korxona hamda oilaviy korxona o'rtasidagi farqni tushuntiring.
45. Hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari har yilgi prognoz parametrlari qanday shakllantiriladi?
46. "Yashil iqtisodiyot" to'g'risida tushuncha bering.
47. Yirik, kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida tushuncha bering.
48. Davlat xaridlari to'g'risida ma'lumot bering.
49. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini tushuntirib bering.
50. Hududlarning investision muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab bering.